



BUYUK SARKARDA AMIR TEMURNING O'ZBEK DAVLATCHILIGI ASOSCHISI SIFATIDA

Saidov Farrux Soibovich,

*Xalqaro innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlari
kafedrasida dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*



THE GREAT COMMANDER AMIR TEMUR AS THE FOUNDER OF UZBEK STATEHOOD

Farrukh Soibovich Saidov,

*International Innovation University
Associate Professor of the Department of Social and
Humanitarian Sciences, Doctor of Philosophy (PhD) in
Historical Sciences*



E-mail: farruxsaidov@gmail.com

ВЕЛИКИЙ ПОЛКОВОДЕЦ АМИР ТЕМУР КАК ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Саидов Фаррух Соибович,

*Международный инновационный университет
Доцент кафедры социально-гуманитарных наук,
доктор философии (PhD) по историческим наукам*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududidagi siyosiy parokandalik, ichki nizolar va mo'g'ul istilolari sharoitida Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, Sohibqironning davlat boshqaruvi tizimi, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari hamda "Temur tuzuklari" asosidagi siyosiy-huquqiy tamoyillari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada Amir Temurning harbiy strategiyasi, markazlashgan boshqaruv siyosati va xalqaro munosabatlardagi faoliyati Temuriylar davlati taraqqiyotining muhim omili sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar davlati, Movarounnahr, markazlashgan davlat, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar, Temur tuzuklari, tarixshunoslik, Sohibqiron.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль великого полководца и государственного деятеля Амира Темура в истории узбекской государственности. В исследовании освещается процесс создания централизованного государства Амиром Темуrom в условиях политической раздробленности, внутренних конфликтов и монгольских нашествий в Мавераннахре во второй половине XIV века. Также на основе исторических источников рассматриваются система государственного управления, военные походы, дипломатические связи и политико-правовые принципы, основанные на «Уложениях Темура». В статье военная стратегия Амира Темура, политика централизованного управления и его деятельность в международных отношениях оцениваются как важный фактор развития государства Темуридов.



Ключевые слова: Амир Тему́р, государство Темуридов, Мавераннахр, централизованное государство, государственное управление, военные походы, дипломатические связи, Уложения Темура, историография, Сахибкиран.

Abstract. This article scientifically analyzes the role of the great commander and statesman Amir Temur in the history of Uzbek statehood. The study examines the process of establishing a centralized state by Amir Temur under the conditions of political fragmentation, internal conflicts, and Mongol invasions in Movarounnahr during the second half of the fourteenth century. The article also analyzes, on the basis of historical sources, the system of state administration, military campaigns, diplomatic relations, and political-legal principles reflected in the “Temur’s Codes” (Temur Tuzuklari). Amir Temur’s military strategy, centralized governance policy, and international diplomatic activity are evaluated as significant factors in the development of the Timurid state.

Keywords: Amir Temur, Timurid State, Movarounnahr, centralized state, state administration, military campaigns, diplomatic relations, Temur Tuzuklari, historiography, Sahibqiran.

KIRISH.

Amir Temur shaxsi va uning davlat boshqaruvi tizimi o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida strategik va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy hodisalardan biri hisoblanadi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik, ichki feodal nizolar, Chig‘atoy ulusining parchalanishi hamda mo‘g‘ul istilolari oqibatida mamlakat hududida markaziy hokimiyat zaiflashib, ijtimoiy-iqtisodiy hayot izdan chiqqan edi. Ayniqsa, mahalliy amirlar va qabila boshliqlari o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar aholi turmushining og‘irlashishiga, savdo yo‘llarining izdan chiqishiga hamda siyosiy beqarorlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ana shunday murakkab va ziddiyatli tarixiy sharoitda Amir Temur yirik harbiy sarkarda, mohir diplomat va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arbobi sifatida tarix sahnasiga chiqdi.

Amir Temurning siyosiy faoliyati Movarounnahrni birlashtirish, markazlashgan davlat tuzish va mamlakatda siyosiy barqarorlikni tiklashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. U qisqa vaqt ichida ichki nizolarni bartaraf etib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga erishdi hamda kuchli davlat boshqaruv tizimini shakllantirdi. Sahibqiron tomonidan amalga oshirilgan islohotlar davlat boshqaruvi, harbiy tizim, soliq siyosati, diplomatik munosabatlar va hududiy boshqaruv sohalarini qamrab olgan bo‘lib, ular o‘z davri uchun mukammal siyosiy model sifatida namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, “Temur tuzuklari” asosida shakllangan boshqaruv tamoyillari davlatni adolat, tartib-intizom va qat’iy qonunlar asosida boshqarish g‘oyasiga tayanganligi bilan ahamiyatlidir.

Amir Temur nafaqat Movarounnahr hududida, balki butun Sharq va G‘arb tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxs hisoblanadi. U tomonidan tashkil etilgan



ulkan saltanat tarkibiga Movarounnahr, Xuroson, Eron, Iroq, Kavkaz, Hindistonning shimoliy qismi va boshqa hududlar kirgan bo'lib, bu davlat o'sha davrning eng yirik siyosiy tuzilmalaridan biri edi. Temurning harbiy yurishlari natijasida Buyuk ipak yo'lining xavfsizligi tiklandi, xalqaro savdo aloqalari rivojlandi va Sharq bilan G'arb o'rtasidagi diplomatik munosabatlar faollashdi. Shuningdek, Samarqandning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylanishi Temur davri taraqqiyotining muhim natijalaridan biri bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi va Temuriylar davri tarixini xolisona o'rganishga keng imkoniyat yaratildi. Sohibqironning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni qayta baholanib, uning tarixiy merosi milliy davlatchilikning muhim asoslaridan biri sifatida e'tirof etildi. Natijada Amir Temur faoliyatiga oid ko'plab tarixiy manbalar tarjima qilindi, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar tashkil etildi. Bu esa Temuriylar davrining siyosiy, huquqiy va madaniy jihatlarini chuqur tadqiq etish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunoslik fanida eng ko'p o'rganilgan tarixiy davrlardan biri hisoblanadi. Sohibqiron faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo tarixida, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida ham muhim o'rin tutganligi sababli ushbu mavzu Sharq va G'arb olimlari tomonidan turli davrlarda keng tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishdagi siyosiy faoliyati, harbiy strategiyasi, diplomatik munosabatlari va davlat boshqaruvi tizimi tarixshunoslikning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida shakllangan.

Sovet davri tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga biryoqlama va mafkuraviy yondashuv hukm surgan bo'lib, uning faoliyati ko'proq bosqinchilik siyosati bilan bog'lab talqin qilingan edi. Natijada Temur davlatchilik tajribasining siyosiy-huquqiy jihatlarini yetarli darajada xolis o'rganilmadi. Mustaqillik yillariga kelib esa Amir Temur shaxsiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va uning tarixiy xizmatlari milliy davlatchilik nuqtayi nazaridan qayta baholandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilinishi, Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi hamda sohibqiron tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanishi Temurshunoslik rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda Amir Temur va Temuriylar tarixiga oid ko'plab tarixiy manbalar o'zbek tiliga tarjima qilindi, ilmiy ekspeditsiyalar va xalqaro konferensiyalar tashkil etildi.

Mahalliy tarixshunoslikda A. O'rinboyev, B. Ahmedov, D. Yusupova, U. Uvatov, A. Muhammadjonov, A. Ahmedov, O. Bo'riyev kabi olimlarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan Amir



Temurning siyosiy faoliyati, markazlashgan davlat tizimi, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari va huquqiy qarashlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, A. Muhammadjonov va B. Ahmedov tadqiqotlarida Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish siyosati hamda Temuriylar davlatining boshqaruv mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. U. Uvatov va D. Yusupova tomonidan esa Sharq manbalari asosida Temuriylar davri siyosiy hayoti va saroy diplomatiyasining ayrim jihatlari yoritilgan.

Shuningdek, H. Boboyev, A. Ziyov, S. Xidirov, D. Obidjonova, X. Fayziyev va B. Usmonov singari tadqiqotchilar Amir Temur davridagi davlat va huquq tizimini, harbiy-ma'muriy boshqaruvni hamda "Temur tuzuklari"ning siyosiy-falsafiy mohiyatini ilmiy jihatdan o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy ishlari Amir Temur davlatining markazlashgan boshqaruv tamoyillari, soliq siyosati va harbiy-intizomiy tizimini tahlil qilishda muhim metodologik manba hisoblanadi.

Xorijiy tarixshunoslikda ham Amir Temur shaxsi va Temuriylar davriga katta qiziqish bildirilgan. Yevropa va Sharq olimlari tomonidan sohibqiron faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan. Xususan, R. Grosse, L. Keren, X. Xukxem, F. Mans, G. Glombek, A. Deraga va boshqa tadqiqotchilar Amir Temur faoliyatini jahon tarixidagi muhim siyosiy hodisalardan biri sifatida baholaganlar. Ayniqsa, fransuz olimi Lucien Keren tomonidan yozilgan "Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat" nomli tadqiqot Temuriylar davrining siyosiy, madaniy va diplomatik hayotini yoritishda muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarda Amir Temurning xalqaro siyosatdagi o'rni, Samarqandning Sharq uyg'onish markaziga aylanishi hamda Temuriylar davridagi madaniy taraqqiyot masalalari keng tahlil qilingan.

Temurshunoslikda birlamchi tarixiy manbalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Sharofiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asari Amir Temur faoliyati haqidagi eng muhim tarixiy manbalardan biri bo'lib, unda Sohibqironning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va diplomatik faoliyati batafsil bayon etilgan. Ibn Arabshohning "Ajoib ul-maqdur fi tarixi Taymur" asari esa Amir Temur faoliyatiga nisbatan tanqidiy ruhdagi qarashlarni aks ettiradi va tarixiy voqealarni qiyosiy o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shuningdek, ispan elchisi Ruy González de Clavijo ning Samarqand safariga bag'ishlangan kundaliklari Temur saroyi hayoti, diplomatik marosimlar va davlat boshqaruv tizimini o'rganishda noyob tarixiy manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot tarixiylik, xolislik, ilmiylik va tizimlilik tamoyillari asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida Amir Temur va Temuriylar davriga oid siyosiy,



harbiy hamda ma'muriy jarayonlarni chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tarix fanida qo'llaniladigan tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, retrospektiv, analitik-sintetik hamda tarixiy-tipologik metodlar tashkil etdi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Amir Temur davridagi davlat boshqaruvi tizimi boshqa o'rta asr sharq davlatlari boshqaruv modeli bilan solishtirildi hamda markazlashgan hokimiyatning shakllanish jarayonidagi o'ziga xos jihatlar aniqlandi. Ayniqsa, Chig'atoy ulusi davridagi siyosiy parokandalik bilan Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan davlat tizimi o'rtasidagi farqlar tahlil qilinib, Sohibqironning davlatchilik siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar ochib berildi.

Manbashunoslik metodidan foydalanish orqali Amir Temur faoliyatiga oid birlamchi va ikkilamchi tarixiy manbalar ilmiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda Sharofiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Ajoib ul-maqdur fi tarixi Taymur" asari, Temur tuzuklari hamda Ruy González de Clavijo ning safarnomalari asosiy tarixiy manbalar sifatida tahlil qilindi. Ushbu manbalar orqali Amir Temurning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlari va saroy hayotiga oid muhim ma'lumotlar umumlashtirildi.

Retrospektiv metod yordamida XIV asr ikkinchi yarmidagi Movarounnahrning siyosiy holati, mo'g'ul istilolari oqibatida yuzaga kelgan parokandalik va mahalliy amirlar o'rtasidagi nizolar tarixiy jarayonlar ketma-ketligida o'rganildi. Bu yondashuv Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi hamda markazlashgan davlat barpo etish zaruratini tarixiy sharoit bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida analitik va sintetik metodlar orqali Amir Temurning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va diplomatik faoliyati bo'yicha mavjud tarixiy ma'lumotlar umumlashtirildi hamda ilmiy xulosalar chiqarildi. Xususan, Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish siyosati, Xorazm, Xuroson, Eron, Kavkaz va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari siyosiy va strategik jihatdan tahlil qilindi. Shu bilan birga, Temur davlatining ma'muriy boshqaruv tizimi, vazirliklar faoliyati, harbiy-intizomiy tuzilmasi, soliq siyosati va diplomatik aloqalari ilmiy nuqtayi nazardan o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosida zamonaviy o'zbek va xorijiy tarixchilarning ilmiy ishlari ham muhim o'rin tutdi. Mahalliy tarixchilar tomonidan Amir Temur davlatchilik tajribasining siyosiy-huquqiy jihatlari o'rganilgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotlarda uning jahon tarixidagi o'rni, xalqaro diplomatiyasi va geosiyosiy faoliyati keng yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish orqali mavzuning tarixshunoslikdagi dolzarb jihatlari aniqlandi.



XULOSA.

Amir Temur XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Movarounnahr hududida markazlashgan kuchli davlat barpo etishga muvaffaq bo‘lgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda hisoblanadi. U siyosiy parokandalik hukm surayotgan davrda mamlakatni birlashtirib, markazlashgan boshqaruv tizimini yaratdi. Uning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va diplomatik faoliyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur tomonidan yaratilgan davlat tizimi keyinchalik Temuriylar davlati taraqqiyotiga mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi. Uning harbiy yurishlari natijasida katta hududlar yagona markaziy hokimiyat ostida birlashtirildi. Shu bilan birga, savdo yo‘llarining rivojlanishi, diplomatik aloqalarning kengayishi va madaniy taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o‘zbek davlatchiligi tarixida markazlashgan davlat asoschisi sifatida muhim tarixiy o‘rin egallaydi. Uning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tajribasi va harbiy mahorati bugungi kunda ham tarixshunoslikda dolzarb ilmiy mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. - Toshkent, 2019.
2. Новейшая история Узбекистана. - Ташкент. Адабиёт учқунлари, 2018. - С.512.
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1, 2, 3-китоблар. - Тошкент.: Шарқ, 2000.
5. Ўзбекистон тарихи (1917 - 1991 йиллар). 1-2-том. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, Қ. Ражабов, М. Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
6. Зиёев Х. Ўзбекистоннинг мустақиллик учун курашлари тарихидан. - Тошкент, 2000.
7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I - II- жилд. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.